



SIRDARYO VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI (2020- yil yanvar-noyabr oylari uchun dastlabki ma`lumot)

Mamlakatning tashqi iqtisodiy faoliyati, xususan, tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita o`z ta`sirini o`tkazadi.

2020- yil yanvar-noyabr oylari yakuni bilan viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 526,4 mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2019 - yilning mos davriga nisbatan 0,9 mln. AQSh dollariga yoki 0,2 % ga kamaydi.

TASHQI SAVDO AYLANMASI VA BALANSI (yanvar- noyabr, mln. AQSh dollar)



Ma`lumot uchun: O`zbekiston Respublikasi tovarlar tashqi savdosi statistika ko`rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat Tovar nomenklaturasi (keyingi o`rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o`rinlarda – XSST) ishlataladi. Bu o`z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhashlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo`yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o`rtasida o`tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.



**SIRDARYO VILOYATI
BILAN TASHQI
SAVDO
AYLANMASI
ENG YUQORI
ULUSHGA EGA
BO`LGAN
DAVLATLAR
(2020- yil
yanvar-noyabr,
mln. AQSh
dollarri, ulushi,
% da)**

TSA da eksport hajmi 154,7 mln. AQSh dollariga (26,7 % ga ko`paydi) va import hajmi 371,7 mln. AQSh dollariga (8,3 % ga kamaydi) yetdi. Hisobot davrida – 217,0 mln. AQSh dollari qiyamatida passiv tashqi savdo balansi qayd etildi.

Top-10 davlatlar	TSA	Eksport	Import	Ulushi, % da
Qozog`iston	118,6	22,4	96,2	22,5
Rossiya Federatsiyasi	109,2	33,1	76,1	20,7
Xitoy Xalq Respublikasi	99,7	22,9	76,8	18,9
Afg`oniston	52,3	52,3	-	9,9
Germaniya	37,7	0,1	37,6	7,2
Turkiya	19,6	1,2	18,4	3,7
Turkmaniston	13,8	0,7	13,1	2,6
Ukraina	7,2	2,4	4,8	1,3
Bangladesh	5,9	5,9	-	1,1
Tojikiston	4,5	3,9	0,6	0,8

So`nggi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilishda, eksportni qo`llab-quvvatlash, import o`rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida, eksport tarkibida sezilarli o`zgarishga erishildi.

Sirdaryo, jahoning 55 dan ortiq mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSA ning nisbatan salmoqli hissasi Qozog`iston (22,5 %), Rossiya Federatsiyasi (20,7 %), Xitoy Xalq Respublikasi (18,9 %), Afg`oniston (9,9 %), Germaniya (7,2 %), Turkiya (3,7 %), Turkmaniston (2,6 %). Ukraina (1,3 %), Bangladesh (1,1 %) va Tojikiston (0,8 %) qayd etilgan.



Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin.

Xususan, qo'shni davlatlar Turkmaniston va Qozog'iston bilan TSA da so'nggi yillarda katta o'zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so'nggi uch yilda TSA Qozog'iston, Afg'oniston, Qirg'iz Respublikasi bilan tashqi savdo aylanmasi oshgani kuzatilmoqda.

Boshqa davlatlar (qo'shni davlatlardan tashqari) bilan esa, TSA da eng yuqori ulush Rossiya, Xitoy, Germaniya va Turkiya davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha 20 ta yirik hamkor-davlatlar orasidan oltita davlatda faol tashqi savdo balansi kuzatilgan, xususan, Rossiya Federatsiyasi (109,2 mln. AQSh dollari), Qozog'iston (118,6 mln. AQSh dollari), Xitoy Xalq Respublikasi (99,7 mln. AQSh dollari), Afg'oniston (52,3 mln. AQSh dollari), Germaniya (37,7 mln. AQSh dollari), Turkiya (19,6 mln. AQSh dollari) va shular jumlasidandir. Qolgan 14 ta davlatlar bilan passiv tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.



**SIRDARYO
VILOYATINING
YIRIK HAMKOR
DAVLATLAR
BILAN TASHQI
SAVDO
AYLANMASI
DINAMIKASI
(yanvar-
noyabr,
mln. AQSh
dollarlari)**

Davlatlar	2018- yil	2019- yil	2020- yil
Qozogiston	64,4	110,4	118,6
Eksport	46,2	39,1	22,4
Import	18,2	71,3	96,2
Saldo	28,3	-32,2	-73,8
Rossiya Federatsiyasi	44,5	89,4	109,2
Eksport	23,0	21,0	33,1
Import	21,5	68,4	76,1
Saldo	1,5	-47,4	-43,0
Xitoy Xalq Respublikasi	111,0	159,6	99,7
Eksport	33,4	26,1	22,9
Import	77,6	133,5	76,8
Saldo	-44,2	-107,4	-53,9
Afg'oniston	3,1	10,7	52,3
Eksport	3,0	10,7	52,3
Import	0,1	-	-
Saldo	2,9	10,7	52,3
Germaniya	4,2	27,7	37,7
Eksport	-	0,1	0,1
Import	4,2	27,6	37,6
Saldo	-4,2	-27,5	-37,5
Turkiya	15,4	27,6	19,6
Eksport	5,6	4,8	1,2
Import	9,8	22,8	18,4
Saldo	-4,2	-18,0	-17,2
Turkmaniston	6,5	12,3	13,8
Eksport	1,6	1,3	0,7
Import	4,9	11,0	13,1
Saldo	-3,3	-9,7	-12,4

2020 - yil
yanvar-noyabr

SIRDARYO VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI



Davlatlar	2018- yil	2019- yil	2020- yil
Avstriya	3,3	25,6	10,6
Eksport	-	-	-
Import	3,3	25,6	10,6
Saldo	-3,3	-25,6	-10,6
Bangladesh	-	1,7	5,9
Eksport	-	1,7	5,9
Import	-	-	-
Saldo	-	1,7	5,9
Ukraina	3,2	10,0	7,2
Eksport	2,3	2,6	2,4
Import	0,9	7,4	4,8
Saldo	1,4	-4,8	-1,3
Janubiy Koreya	13,7	12,9	6,5
Eksport	-	0,1	-
Import	13,7	12,8	6,5
Saldo	-13,7	-12,7	-6,5
Tojikiston	2,7	7,7	4,5
Eksport	2,1	5,6	3,9
Import	0,6	2,1	0,6
Saldo	1,5	3,5	3,3
Belarusiya	1,4	2,8	1,2
Eksport	1,2	1,4	0,2
Import	0,2	1,4	1,0
Saldo	1,0	0,0	-0,8
Qirg'iz Respublikasi	2,1	3,6	3,5
Eksport	1,0	1,9	1,3
Import	1,1	1,7	2,2
Saldo	-0,1	0,2	-0,9

SIRDARYO
VILOYATINING
YIRIK HAMKOR
DAVLATLAR
BILAN TASHQI
SAVDO
AYLANMASI
DINAMIKASI
(yanvar-
noyabr,
mln. AQSh
dollarlari)

2020 - yil
yanvar-noyabr

SIRDARYO VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI



**SIRDARYO
VILOYATINING
YIRIK HAMKOR
DAVLATLAR
BILAN TASHQI
SAVDO
AYLANMASI
DINAMIKASI
(yanvar-
noyabr,
mln. AQ\$
dollarlari)**

Davlatlar	2018- yil	2019- yil	2020- yil
Litva	2,5	8,6	7,8
Eksport	0,1	2,1	0,6
Import	2,4	6,5	7,2
Saldo	-2,3	-4,4	-6,6
Pokiston	2,2	3,3	5,0
Eksport	2,0	3,1	5,0
Import	0,2	0,2	-
Saldo	1,8	2,9	5,0
Ekvador	-	-	0,9
Eksport	-	-	-
Import	-	-	0,9
Saldo	-	-	-0,9
Fransiya	0,2	1,8	0,9
Eksport	-	-	-
Import	0,2	1,8	0,9
Saldo	-0,2	-1,8	-0,9
Vengriya	0,6	2,5	1,0
Eksport	-	-	-
Import	0,6	2,5	1,0
Saldo	-0,6	-2,5	-1,0
Italiya	1,4	4,5	2,3
Eksport	-	-	-
Import	1,4	4,5	2,3
Saldo	-1,4	-4,5	-2,3

Viloyatimizda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2020- yil yanvar-noyabr oylarida, tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 49,1 % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi 2019 -yilning mos davriga nisbatan ulushi 8,1 % ga oshgan.

SIRDARYO VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-noyabr, ming. AQSh dollari, ulushi % da)




Boshqa xorijiy davlatlarning TSA si 2020- yil yanvar- noyabr oylarida 2019- yilning mos davriga nisbatan kamaydi (8,1 % ga) va jami TSA dagi ulushi 50,9 % ni tashkil etdi.

SIRDARYO VILOYATINING EKSPORTI (2020-yil yanvar - noyabr)

XSST
BO`YICHA
EKSPORT
TARKIBI
(2020- yil
yanvar-
noyabr,
ulushi, % da)

Joriy yilning yanvar-noyabr oylarida mamlakatning eksportyorlar soni 160 ortig'ini tashkil etib, ular tomonidan 154,7 mln. AQSh dollari qiymatidagi (2019- yilning mos davriga nisbatan 26,7 % ga ko'paydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 99,1 % ni tashkil etib, ular asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari (20,4 %), turli xil tayyor buyumlar (8,7 %), nooziq-ovqat xomashyo yoqilg'idan tashqari (8,1 %) oziq-ovqat va tirik hayvonlar (56,3 %) hissasiga to`g`ri kelmoqda.





XSST tarkibi	Min. AQSh dollarari			Umumi hajmga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami eksport	154,7	64,4	90,3	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	87,2	27,2	60,0	56,4	42,3	66,4
Ichimliklar va tamaki	0,1	0,1	-	-	0,1	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg`idan tashqari	12,6	5,0	7,6	8,2	7,7	8,5
Mineral yoqilg`i, yog`lash moylari va shunga o`xhash materiallar	-	-	-	-	-	-
Hayvon va o`simliklar moylari (yog`lari), yog`lar va mumlar	0,6	0,6	-	0,4	0,9	-
Kimyoiy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o`xhash mahsulotlar	5,7	5,2	0,5	3,7	8,1	0,6
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	31,6	10,4	21,2	20,4	16,2	23,5
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	2,1	1,9	0,2	1,3	3,0	0,1
Turli xil tayyor buyumlar	13,5	13,1	0,4	8,7	20,4	0,4
Xizmatlar	1,3	0,9	0,4	0,9	1,3	0,5

2020 - yil
yanvar-noyabr

SIRDARYO VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI

**MDH
VA BOSHQA
XORIJY
DAVLATLARGA
TOVAR
VA XIZMATLAR
EKSPORTINING
O`SISH
SUR`ATLARI
(2020- yil
yanvar-noyabr)**

MDH mamlakatlari va boshqa mamlakatlarga eksportning yo`nalishi bo`yicha farqlanishlar mavjudligi kuzatilmoqda. Xususan, MDH mamlakatlariga eksportning asosiy qismi oziq-ovqat mahsuloti hissasiga to`g`ri kelmoqda, keyingi o`rinlarda eksport hajmi bo`yicha asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari, turli xil tayyor buyumlar hamda kimyoviy vositalar va boshqa shunga o`xshash mahsulotlarga to`g`ri kelmoqda.

XSST tarkibi	2019- yilning yanvar-noyabriga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami	126,7	94,9	166,5
shu jumladan:			
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	168,8	85,8	3,1 m.
Ichimliklar va tamaki	-	-	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg`idan tashqari	66,5	92,0	56,4
Mineral yoqilg`i, yog`lash moylari va shunga o`xshash materiallar	11,5	11,5	-
Hayvon va o`simliklar moylari (yog`lari), yog`lar va mumlar	85,0	78,7	-
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o`xshash mahsulotlar	149,9	136,3	31,6 m.
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	106,1	105,2	106,5
Mashinalar va transport asbob-uskunalarini	88,1	82,7	35,2 m.
Turli xil tayyor buyumlar	103,0	102,6	118,6
Xizmatlar	111,1	74,7	17,0 m.



2020- yil yanvar-noyabr oylarida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko`rsatmoqdaki, tovarlar va xizmatlar tarkibida sezilarli o`zgarishlar qayd etilmadi, biroq shuni ta`kidlash joizki, 2019- yilning yanvar-noyabriga nisbatan, oziq-ovqat mahsulotlari va kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o`xhash mahsulotlarda o'sish kuzatildi.

XSST tarkibi	2018-yil	2019-yil	2020-yil
Jami	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:			
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	24,2	42,5	56,4
Ichimliklar va tamaki	-	-	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg`idan tashqari	16,2	15,6	8,2
Mineral yoqilg`i, yog`lash moylari va shunga o`xhash materiallar	-	-	-
Hayvon va o`simliklar moylari (yog`lari), yog`lar va mumlar	-	0,6	0,4
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o`xhash mahsulotlar	10,9	3,2	3,7
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	34,6	24,5	20,4
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	1,6	1,9	1,3
Turli xil tayyor buyumlar	10,3	10,7	8,7
Xizmatlar	2,2	1,0	0,9

**EKSPORT TARKIBI
DINAMIKASI
ULUSHI
(yanvar-noyabr,
% da)**



**XSST BO`LIMI
BO`YICHA
AYRIM
MAHSULOTLAR
EKSPORTI
TARKIBI
(2020- yil
yanvar-
noyabr)**

XSST bo`limi nomi	Mln. AQSh dollarri	2019- yilning mos davriga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Sabzavotlar va mevalar	34,5	84,5
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	49,9	5,5 m.
Hayvonlar uchun ozuqalar (maydalamanmagan donlardan tashqari)	2,2	155,3
Tirik hayvonlar, 03 bo`limga kiritilgan hayvonlardan tashqari	0,1	3,2 m.
Sut mahsulotlari va parranda tuxumlari	0,3	
Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	0,2	40,9
Ichimliklar va tamaki		
Ichimliklar	0,07	-
Tamaki va tamaki mahsulotlari	-	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg`idan tashqari		
To`qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	11,6	67,8
Hayvonlar va o`simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	0,1	180,9
O'g'itlar uchun xom –ashyo va mineral xom ashyo (ko'mir neft va qimmatbaxo toshlardan tashqari)	0,2	155,3
Qog`oz massasi va makulatura	0,4	37,3
Moy olinadigan urug`lar va mevalar	0,3	45,0
Mineral yoqilg`i, yog`lash moylari va shunga o`xhash materiallari		
Tabiiy yoki sun`iy gaz	-	-
Elektr toki	-	-
Neft va neft mahsulotlari va shunga o`xhash materiallari	-	-
Hayvon va o`simliklar moylari (yog`lari), yog`lar va mumlar		
O`simlik moylari va yog`lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	0,6	84,9
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o`xhash mahsulotlar		
Birlamchi shakldagi plastmassalar	0,3	13,1 m.
Noorganik kimyo moddalari	0,01	-
O`g`itlar	-	-
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	0,7	2,0 m.
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	4,6	136,1

2020 - yil
yanvar-noyabr

SIRDARYO VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI

**XSST BO`LIMI
BO`YICHA
AYRIM
MAHSULOTLAR
EKSPORTI
TARKIBI
(2020- yil
yanvar-
noyabr)**

Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari			
To qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o`xhash mahsulotlar	19,6	136,8	
Probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebellardan tashqari)	0,4	-	
Teri,boshqa joyda tasniflanmagan teridan tayyorlangan mahsulotlar,boshqa joyda tasniflanmagan	9,5	80,4	
Metalldan tayyorlangan buyumlar	0,01	97,1	
Ruda bo`limgan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar	2,0	55,2	
Mashinalar va transport asbob-uskunalarini			
Avtomobillar (xavo padushkalaridagi transport vositalri ham)	0,02	-	
Elektr mashinalari, apparatlar, asboblar va ularning ehtiyyot qismlari	0,04	123,8 m.	
Elektr aloqasi, ovozni yozish va eshittirish apparaturalari va uskunalarini	-	-	
Sanoat uchun maxsus bo`limgan mashinalar va ularning detallari	1,7	78,2	
Aniq sohalar uchun maxsus mo`ljallangan mashinalar	0,3	172,3	
Turli xil tayyor buyumlar			
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	13,0	99,6	
Poyabzal	0,3	-	
Har xil tayyor buyumlar	0,3	3,3 m.	
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	-	-	
Yo`l anjomlari, sumkalar va shunga o`xhash buyumlar	-	-	
Boshqa tovarlar			
Maxsus operatsiyalar va turlariga ko`ra tasniflanmagan tovarlar	-	-	
Xizmatlar			
Transport xizmatlari	0,9	75,9	
Safarlar (turizm)	-	-	
Telekommunikatsiya, axborot va kompyuter xizmatlari	-	-	
Qurilish xizmatlari	-	-	
Boshqa biznes xizmatlari	-	-	



**MDH
VA BOSHQA
DAVLATLARGA
TOVAR
VA XIZMATLAR
EKSPORTI
HAJMLARI
DINAMIKASI
(yanvar-
noyabr,
ming. AQSh
dolları,
ulushi, % da)**

So`nggi uch yilda MDH mamlakatlariiga eksport hajmi va ularning jami eksportdagи ulushi 2019- yil yanvar-noyabrdagi 55,6 % ni 2020- yil yanvar-noyabridagi 41,6 % ni tashkil etdi. Mos ravishda boshqa mamlakatlarning jami eksportdagи ulushi 58,4 % ga etdi.

Eksport



2020- yilning yanvar-noyabr oylari tovar va xizmatlar eksporti bo`yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Afg`oniston (33,8 %), Rossiya Federatsiyasi (21,4 %), Qozog`iston (14,5 %), Bangladesh (3,7 %), Tojikiston (2,5 %), Ukraina (1,5 %) va Xitoy Xalq Respublikasi (14,8 %) davlatlari saqlanib qolmoqda, hamda ularning jami eksportdagи ulushi 92,2 % ni tashkil etmoqda.

Tovarlar va xizmatlar eksporti bo`yicha yettita asosiy hamkor davlatlardan yetakchi bo`lgan Rossiya Federatsiyasi bir pog`onaga tushishi hisobiga, Afg`oniston eksportdagи ulushi bo`yicha peshqadamlilikni oldi.




**VILOYAT
EKSPORTIDA
ASOSIY
HAMKOR
DAVLATLAR-
NING ULUSHI
(2020- yil
yanvar-noyabr,
% da)**

**SIRDARYO
VILOYATINING
ASOSIY
HAMKOR
DAVLATLARGA
AMALGA
OSHIRGAN
EKSPORTI
HAJMI VA
O'SISH
SUR`ATLARI
(yanvar-
noyabr)**

Hamkor mamlakatlarning tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha geografiyasi 2019- yilning mos davriga nisbatan 33 davlatdan 34 davlatga ko'paydi.

Eksportda asosiy hamkor davlatlarning ulushi

(yanvar-noyabr oyli)



Davlatlar	Mln. AQSh dollarri		O'sish sur'ati, % da		O'rni	
	2019- yil	2020- yil	2019- yil	2020- yil	2019- yil	2020- yil
Afg'oniston	9,9	52,3	4,7 m.	5,2 m.	4	1
Rossiya Federatsiyasi	19,4	33,1	91,1	170,6	3	2
Xitoy	24,6	22,9	75,9	93,1	1	3
Qozog`iston	36,8	22,3	112,9	60,6	2	4
Bangladesh	1,6	5,9	-	3,6 m.	12	5
Tojikiston	5,2	3,9	2,7 m.	75,0	8	7
Ukraina	2,4	2,4	109,1	100,0	6	8
Turkiya	3,5	1,2	64,8	34,3	5	10

2020 - yil
yanvar-noyabr

SIRDARYO VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI

**MEVA-
SABZAVOT
MAHSULOT-
LARI
EKSPORTI**

**MEVA-
SABZAVOT
MAHSULOT-
LARI
EKSPORTI
(2020 yil
yanvar-
noyabr,
ming. AQSh
dollar)**

Davlatlar	Mln. AQSh dollarari		O'sish sur'ati, % da		O'rni	
	2019- yil	2020- yil	2019- yil	2020- yil	2019- yil	2020- yil
Pokiston	3,1	5,0	6,2 m.	161,3	7	6
Qirg'iz Respublikasi	1,8	1,3	2,0 m.	72,2	13	9
Turkmaniston	0,6	0,7	6,0 m.	116,7 m.	14	11
Singapur	-	0,3	-	-	18	12
Vietnam	0,6	0,9	85,7	150,0	15	13
Latviya	2,1	0,6	21,0 m.	28,6	9	14
Gruziya	1,0	0,3	-	30,0	11	15
Ozbarbayjon	0,1	0,3	5,0 m.	3,0 m.	16	16
Nedirlandiya	0,3	0,1	-	33,3	17	17
Belarus Respublikasi	1,3	0,2	130,0	15,4	10	18
Irlandiya	-	-	-	-	20	20
Germaniya	0,9	0,1	-	11,1	19	19

Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo`lgan 34,5 mln. dollar qiymatli 77,2 ming tonnadan ziyod meva-sabzavot eksport qilingan. Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 16,5 mln. AQSh dollariga teng 46,6 ming tonna sabzavot, shuningdek, 18,0 mln. AQSh dollari qiymatidagi 30,6 ming tonna meva va rezavorlar eksport qilindi.

Hukumat tomonidan qishloq xo`jaligi va bog`dorchilikni rivojlantirishga katta e`tibor qaratilayotgani bois eksport qilinayotgan meva va sabzavotlarning ulushi 39,6 % ni tashkil etdi.



Meva va
rezavorlar

25 798,4 t.
14 225,6 ming.
AQSh. dollar



Uzum

4 541,1 t.
3 496,1 ming.
AQSh. dollar



Veryong'oq

520,8 t.
452,7 ming.
AQSh. dollar



Sabzavotlar

46 354,5 t.
16 361,9 ming.
AQSh. dollar

**MEVA -
SABZAVOT-
MAHSULOT-
LARINING
EKSPORT
GEOGRAFIYASI
(yanvar-
noyabr)**

Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Qozog`iston (37,1 %), Rossiya Federatsiyasi (33,9 %), Afg'oniston (5,0 %) va Tojikiston (3,1 %) davlatlari hissasiga to`g`ri kelgan.

Davlatlar	2019- yil			2020- yil		
	ming tonna	mln. AQSh dollarri	ulushi*, % da	ming tonna	mln. AQSh dollarri	ulushi*, % da
Qozog`iston	42,6	26,2	64,8	46,8	12,1	37,1
Rossiya Federatsiyasi	1,3	0,7	3,1	14,6	11,7	33,9
Afg`oniston	1,7	2,6	3,1	2,8	1,7	5,0
Tojikiston	0,5	0,1	1,4	1,9	1,1	3,1
Ukraina	3,7	1,6	12,3	3,1	1,3	3,7

*-qiymat ifodasidan




SIRDARYO VILOYATINING IMPORTI (2020-yil yanvar-noyabr)

2020- yil yanvar-noyabr oylarida import hajmi 371,7 mln. AQSh dollarini va 2019- yilning mos davriga nisbatan 91,7 % ni tashkil etdi.

Import tarkibida eng katta ulush, mashina va asbob uskunalariga (41,7 %), oziq-avqat mahsulotlari (25,1 %), kimyo maxsulotlari va plastmassa (12,8 %) boshqalar (20,4 %) hisobiga to`g`ri keldi.

XSST BO`LIMI
BO`YICHA
IMPORT
TARKIBI
(2020-yil
yanvar-
noyabr, ulushi,
% da)





**MDH
VA BOSHQA
XORIJY
DAVLATLARDAN
IMPORT TARKIBI
(2020- yil
yanvar-noyabr)**

Tovar va xizmatlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2020- yilning yanvar-noyabrida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 91,7 % tashkil etdi. Jami import hajmi 371,7 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.

XSST tarkibi	Min. AQSh dollari			Umumiy hajmga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami import	371,7	194,3	177,4	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	93,1	86,5	6,6	25,1	44,6	3,7
Ichimliklar va tamaki	-	-	-	-	-	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg`idan tashqari	12,8	10,3	2,5	3,4	5,2	1,4
Mineral yoqilg`i, yog`lash moylari va shunga o`xshash materiallar	16,8	16,6	0,2	4,5	8,6	0,1
Hayvon va o`simliklar moylari (yog`lari), yog`lar va mumlar	0,6	0,5	0,1	0,2	0,3	0,1
Kimyoiviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o`xshash mahsulotlar	47,4	28,6	18,8	12,8	14,7	10,6
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	26,0	14,1	11,9	7,0	7,2	6,7
Mashinalar va transport asbob- uskunalar	155,1	35,1	120,0	41,7	18,1	67,7
Turli xil tayyor buyumlar	19,8	2,6	17,2	5,3	1,3	9,7
Xizmatlar	0,1	-	0,1	-	-	0,1



**MDH VA
BOSHQA
XORIJY
DAVLATLARDAN
IMPORTNING
O`SISH
SUR'ATLARI
(2020- yil
yanvar-
noyabr)**

Importning eng katta ulushi, jumladan, oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (44,5 %), mashinalar va transport asbob-uskunalar (18,1 %), kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o`xshash mahsulotlar (14,7 %), nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg`idan tashqari (5,2 %) MDH mamlakatlariiga to`g`ri keladi, boshqa xorijiy mamlakatlarga esa eng katta ulush asosan mashina va transport asbob-uskunalar (67,6 %) hamda kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o`xshash mahsulotlar (10,6 %), hissasiga to`g`ri keladi.

XSST tarkibi	2019- yil yanvar-noyabriga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami	91,7	131,1	69,0
shu jumladan:			
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	2,4m.	3,0 m.	64,2
Ichimliklar va tamaki	-	-	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg`idan tashqari	59,1	55,4	79,7
Mineral yoqilg`i, yog`lash moylari va shunga o`xshash materiallar	76,1	75,6	2,9 m.
Hayvon va o`simliklar moylari (yog`lari), yog`lar va mumlar	87,6	176,3	14,7
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o`xshash mahsulotlar	54,1	93,2	33,2
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	69,3	120,5	46,1
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	91,1	101,1	88,4
Turli xil tayyor buyumlar	73,4	121,9	69,2
Xizmatlar	-	-	-



**IMPORT TARKIBI
DINAMIKASI
(2020- yil
yanvar-noyabr,
ulushi, % da)**

Joriy davrda import qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibi tahlili shuni ko`rsatdiki, 2019- yilning mos davriga nisbatan oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar 243,0 % , hayvon va o`simliklar moylari (yog`lari), yog`lar va mumlar 87,6 %, asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari importi esa 69,3 % ni tashkil qildi.

XSST tarkibi	2018- yil	2019- yil	2020- yil
Jami	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:			
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	6,9	9,5	25,1
Ichimliklar va tamaki	-	-	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg`idan tashqari	5,6	5,3	3,4
Mineral yoqilg`i, yog`lash moylari va shunga o`xshash materiallar	5,2	5,4	4,5
Hayvon va o`simliklar moylari (yog`lari), yog`lar va mumlar	0,5	0,2	0,2
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o`xshash mahsulotlar	29,0	21,6	12,8
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	7,5	9,3	7,0
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	33,6	42,1	41,7
Turli xil tayyor buyumlar	11,7	6,6	5,3
Xizmatlar	-	-	-

**XSST BO`YICHA
IMPORT
QILINGAN
AYRIM TURDAGI
MAHSULOTLAR
TARKIBI
(2020- yil
yanvar- noyabr
2019- yil
yanvar- noyabr
iga nisbatan)**

Mahsulot nomi	Mln. AQSh dollarri	O`zgarish sura`tlari, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	83,3	3,9 m.
Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	0,2	33,0
Hayvonlar uchun ozuqalar (maydalananmagan donlardan tashqari)	2,1	46,0
Sabzavotlar va mevalar	1,1	4,6 m.
Har xil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlar	0,2	91,6
Ichimliklar va tamaki		
Tamaki va tamaki mahsulotlari	-	-
Ichimliklar	-	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg`idan tashqari		

2020 - yil
yanvar-noyabr

SIRDARYO VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI



**XSST BO`YICHA
IMPORT
QILINGAN
AYRIM TURDAGI
MAHSULOTLAR
TARKIBI
(2020- yil
yanvar-oktabr
2019- yil
yanvar-
noyabriga
nisbatan)**

Metall rudalari va metal parchalari	1,6	62,6
Probka va yog`och-taxtalar	5,7	60,1
Moy olinadigan urug`lar va mevalar	4,4	64,5
Qog'oz massasi va makullatura	0,2	191,5
Hayvonlar va o`simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	0,1	6,9
Mineral yoqilg`i, yog`lash moylari va shunga o`xshash materiallar		
Neft va neft mahsulotlari va shunga o`xshash materiallar	11,8	57,2
Ko`mir, koks va briketlar	5,0	3,5 m.
Elektr toki	-	-
Hayvon va o`simliklar moylari (yog`lari), yog`lar va mumlar		
O`simlik moylari va yog`lari	0,6	105,0
Hayvon va o`simlik moylari va yog`lari	-	-
Hayvonlar moylari va yog`lari	-	-
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o`xshash mahsulotlar		
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	1,8	5,5
Birlamchi shakldagi plastmassalar	24,9	121,4
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	3,7	35,7
Efir moylari, rezinoidlar va attorlik moddalari	1,6	109,0
Organik kimyo moddalari	1,5	52,6
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari		
Cho`yan va po`lat	6,3	70,5
Metalldan tayyorlangan buyumlar	5,2	139,2
To`qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o`xshash mahsulotlar	2,8	88,2
Probka va yog`ochdan tayyorlangan buyumlar	7,0	163,4
Ruda bo`limgan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar	3,0	20,6
Mashinalar va transport asbob-uskunalarini		
Aniq sohalar uchun maxsus mo`ljallangan mashinalar	91,7	112,3
Avtomobilarning ehtiyyot qismlari	-	-
Avtomobillar, asosan yo`lovchilarni tashish uchun mo`ljallangan avtoulovlar (10 va undan ortiq kishini tashishga mo`ljallangan transport vositalaridan tashqari)	-	-
Sanoat uchun maxsus bo`limgan mashinalar va ularning detallari	23,1	86,0
Elektr aloqasi, ovozni yozish va eshittirish apparaturalari va uskunalarini	1,3	2,2 m.
Elektr mashinalari, apparatlar, asboblar va ularning ehtiyyot qismlari	6,4	55,6



Turli xil tayyor buyumlar

Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	3,8	89,1
Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya isitish va yoritish uskunalarini uchun armatura va mahkamlash moslamalari	14,6	71,1
Har xil tayyor buyumlar	0,7	69,6
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari, matraslar va mebel uchun tirkaklar, yostiqlar va shunga o'xshash mahsulotlar	0,3	84,3
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	0,1	44,7

Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar importi hajmlarining ko'payishiga sabzavot va mevalar (4,6 baravarga ko'paydi), Har xil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlar (91,6 % ga kamaydi), donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar (3,9 baravarga) importi ko'paydi.

Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar importi kamayishiga esa, birlamchi shakldagi plastmassalar importining ko'payganganligi (143,2 %) hamda organik kimyo moddalari (49,6 %) kamayishiga bevosita ta'sir etgan.

Import



**MDH
VA BOSHQA
XORIJY
DAVLAT-
LARDAN
TOVAR
VA XIZMATLAR
IMPORTI
HAJMLARI
DINAMIKASI
(yanvar-
noyabr,
ming. AQSh
dollarri,
ulush % da)**

2020 - yil
yanvar-noyabr

SIRDARYO VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI



**TOVAR
VA XIZMATLAR
IMPORTIDAGI
YIGIRMATA
YIRIK HAMKOR
DAVLATLAR
(yanvar-
noyabr)**

Hisobot davri yakunlariga ko`ra, import bo`yicha hamkor davlatlar orasida Qozog'iston umumiy import hajmida 25,9 % ulushi bilan Rossiya Federatsiyasi (20,6 %) ortda qoldirgan holda, birinchi o`rinni egalladi.

Davlatlar	Min. AQSH dollarari		O'sish sur`ati, % da		O'rni	
	2019- yil	2020- yil	2019- yil	2020- yil	2019- yil	2020- yil
Qozog'iston	61,5	96,3	8,3 m.	148,3	3	1
Xitoy Xalq Respublikasi	121,9	76,8	3,6 m.	121,7	2	2
Rossiya Federatsiyasi	64,5	76,1	176,9	62,2	1	3
Germaniya	27,3	37,6	7,9 m.	145,1	5	4
Turkiya	22,1	18,4	2,2 m.	75,7	7	5
Turkmaniston	10,3	13,1	3,1 m.	132,3	6	6
Avstriya	22,3	10,6	10,2 m.	53,7	4	7
Litviya	12,3	7,3	101,7	48,0	8	8
Koreya Respublikasi	12,6	6,5	3,0 m.	98,1	9	9
Ukraina	6,9	4,8	15,5 m.	75,8	10	10
Qirg'i'z Respublikasi	1,5	2,3	166,7	146,7	14	11
Italiya	3,7	2,3				12
Eron	1,3	1,1	52,2	83,3	16	13
Vengriya	2,5	1,0	3,6 m.	45,5	18	14
Belarus	1,4	1,0				15
Fransiya	1,6	0,9	8,0 m.	56,3	11	16
Chexiya	8,2	0,9				17
Tojikiston	1,8	0,6	5,6 m.	35,3	17	18
Norvegiya	0,6	0,6	-	120,0	12	19

2020 - yil
yanvar-noyabr


SIRDARYO VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI

VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR- NING ULUSHI (2020- yil yanvar-noyabr, % da)

2019- yil bilan taqqoslaganda import bo'yicha eng yuqori otilikda o'zgarish kuzatilmadi.

2020- yil yanvar-oktabr oylari yakuni bo'yicha Sirdaryo viloyati tomonidan 60 tadan ortiq davlat bilan tovarlar va xizmatlar importi amalga oshirildi.

Importda asosiy hamkor davlatlarning ulushi



Yetti yirik hamkor davlatlar (Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Turkmaniston, Turkiya, Germaniya, Qozog'iston va Avstriya) jami importning 88,3 % ini tashkil qiladi, bu 328,9 mln. AQSh dollarini tashkil etadi.

Sirdaryo viloyati
Tashqi iqtisodiy faoliyat va
savdo statistikasi bo`limi.
Tel.:67-225-19-70